

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KELDIYOROVA MANZURA G‘AYBULLAYEVNA

ONA TILI TA‘LIMIGA DOIR ADAPTIV KO‘NIKMALARNI
MAJMUAVIY TARKIBLASHTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Ona tili o‘qitish metodikasi fani misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Keldiyorova Manzura G‘aybullayevna

Ona tili ta‘limiga doir adaptiv ko‘nikmalarni majmuaviy tarkiblashtirish metodikasini takomillashtirish (Ona tili o‘qitish metodikasi fani misolida)..... 3

Келдиёрова Манзура Гайбуллаевна

Совершенствование методики комплексного структурирования адаптивных навыков в обучении родному языку (на примере предмета "Методика преподавания родного языка")21

Keldiyorova Manzura Gaibullayevna

Improving the methodology for the complex composition of adaptive skills in native language education (on the example of the subject of native language teaching methodology)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KELDIYOROVA MANZURA G‘AYBULLAYEVNA

ONA TILI TA‘LIMIGA DOIR ADAPTIV KO‘NIKMALARNI
MAJMUAVIY TARKIBLASHTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Ona tili o‘qitish metodikasi fani misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3128 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shodiyev Rizamat Davronovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: qardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: qardu@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi
(2024 - yil “___” _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.R.Turdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,
p.f.d. (DSc), professor

I.B.Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), professor

Sh.U.Nurullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida yetakchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida ta'limda raqamlashtirishdan foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlar nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining Massie Open Online Source (AQSH), Coursera, Universarium (Rossiya) kabi ochiq elektron ta'lim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda. Bundan tashqari malakali kadrlarni tayyorlashda Digital Britain, Degreed, Global Education va Second Life kabi virtual ta'lim platformalari alohida e'tirof qilinmoqda. Shuning uchun ta'lim sohasida talabalarda kasbiy va maxsus kompetensiyalarini shakllantirish, obyektiv baholashda ta'limning nostandart shakllari, usullari va vositalaridan innovatsion ta'lim muhitida majmuaviy foydalanish muhim o'rin tutadi.

Jahon amaliyotida ta'lim mazmunini standartlashtirish bilan bog'liqlikda talabalarni ona tili ta'limiga doir pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni jadal o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ta'lim muhitini loyihalashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, kasbiy yo'naltirish, qo'shimcha ta'lim dasturlari asosida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini erkin tanlash imkoniyatini yaratib beruvchi o'qitish texnologiyalari, ayniqsa, ona tilini o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarni ona tili ta'limiga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari sohasida ilmiy-pedagogik modullarini joriy etish, milliy malaka talablarini ishlab chiqish hamda ularni turli darajadagi milliy ta'lim tizimlari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Respublikamizda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, mutaxassis-kadrlarning kasbiy faoliyat sifatлари va shaxsiy salohiyatiga talablarning yuqoriligi, shaxs hayotiy ish-faoliyatining turli sohalarda pedagogik ma'lumotlardan keng qamrovli foydalanishni talab etmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar OTMlarida ta'lim sifatini ta'minlay oladigan kasbiy kompetentli, yuqori malakali o'qituvchilarini milliy va ilg'or xorijiy tajribalarni uyg'unlashgan holda tayyorlashning mexanizmi ishlab chiqilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning moddiy-texnik bazasi taraqqiy etmoqda, me'yoriy hujjatlar va modulli malaka talablariga asoslanish tizimi joriy etilmoqda. Hozirgi kunda mutaxassislar kasbiy faoliyatlarini hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy shakllanishning asosi deb tushunib, pedagogik qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojlari mavjudligini tan olmoqdalar. O'z kasbining bilimdoni bo'lish uchun nafaqat sohaga oid konseptlarni, balki ta'lim texnologiyalari asosida shaxslarning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatishni ham yaxshi bilish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, 2020-yil 31-dekabrda "Malakalarni baholash tizimini tubdan mukammallashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to'g'risida"gi №PF-60 sonli, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi 616-sonli "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va ilmiy-pedagogik adabiyotlarning tahlili natijalari asosida, kasbiy tayyorgarlik, xususan, oliy ta'lim muassasalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolarini yechish yo'llari va vositalari yuzasidan R.X.Djurayev, M.Ochilov, T.G'afforova, N.A.Muslimov, R.D.Shodiyev, M.B.Urazova, A.A.Xalikov, Sh.U.Nurullayeva, A.R.Hamroyev, N.G.Alovuddinova, F.M.Komilova, O.A.Qo'ysinov, N.T.Misirova, B.A.Nazarova, A.T.Toshxonov, N.S.Xujayarova, M.T.Sultanov kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH mamlakatlaridan V.A.Adolf, K.A Abulxanova-Slavskoy, T.P.Braun, O.V.Buxovseva, A.K.Dashkova, E.F.Zeyer, E.P.Ilin, G.A.Kruchinina, A.A.Mashanov, L.A.Mokretsova, V.S.Rotenberg, S.V.Sidorov, E.A.Sokolova, A.V.Fedoseyeva, L.V.Shkerina kabi olimlar tomonidan oliy ta'lim muassasalarida talabalarni adaptiv ko'nikmalari nazariyasining turli jihatlari aks ettirilgan.

Xorij mamlakatlardan S.H. Abbas, Q.A. Agbaria, D. Andronache, J.Ballantyne, L.Flynn, T. Olm-Madden, G.Z. Bedny, M. Benedek, Drapeau Patti, L.P. Devi, Amilburu Marta Ruiz-Corbella, J.A.Plucker, Matt D'Angelo, Mark Coeckelbergh, R. Keith Sawyer, John Spacey, Joanne Entwistle kabi olimlar talabalarda adaptiv ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini mukammallashtirishiga doir ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi (№0908165532 raqamli) grant loyihasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona tili ta'limida mustaqil-ijodiy fikrlash metodikasi adaptiv ko'nikmalarning individual xatti-harakatlar, asosiy aqliy funksiyalar, psixofiziologik sifatlar, aqliy moslashuv jarayonlari kabi komponentlarini majmuaviy tarkiblashtirish;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirishning pedagogik modelini, adaptatsiya dinamikasi va omillariga ko'ra integrativ yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqish;

ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarning didaktik tizimi mobil-didaktik kontentini nutqiy, kommunikativ hamda pragmatik darajalarga ko'ra tarkiblashtirish asosida boyitish;

talabalarning ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish natijalarining obektiv baholashning adekvat mezonlarini vazniy, sifatiy, miqdoriy parametrlarini diagnostiklik darajalarini mazmunan optimallashtirish.

Tadqiqotning ob'yekt ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish metodikasini takomillashtirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishiga daxldor ilmiy adabiyot, didaktik materiallar, DTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik qo'llanmalar, darslik hamda ilmiy izlanishlarni o'rganish va tahlil qilish; pedagogik kuzatish, suhbat, test, modellashtirish, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov; psixodiagnostika, ekspert baholash, olingan tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish singari metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning ona tili ta'limida mustaqil-ijodiy fikrlash metodikasi adaptiv ko'nikmalarning individual xatti-harakatlar, asosiy aqliy funksiyalar, psixofiziologik sifatlar, aqliy moslashuv jarayonlari kabi komponentlarini yaxlit tizimga keltirishga ko'ra majmuaviy tarkiblashtirish asosida takomillashtirilgan;

ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirishning pedagogik modeli, adaptatsiya dinamikasi va omillariga ko'ra integrativ yondashuv tamoyillari asosida takomillashtirilgan;

ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarning didaktik tizimi mobil-didaktik kontentini boyitishni nutqiy, kommunikativ hamda pragmatik darajalarga ko'ra tarkiblashtirish asosida aniqlashtirilgan;

ta'lim jarayonida talabalarni ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish natijalarining obektiv baholovchi parametr va indikatorlarning ishlash mexanizmi ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar qobiliyati va ehtiyojlarini e'tiborga olishga ko'ra o'qitish sur'atini intensivlashtirish asosida optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogika”, “Pedagogik texnologiyalar”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o'quv qo'llanmalariga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi berilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr qilinib o'quv jarayoniga tatbiq qilingan;

“Umumiy pedagogika”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” elektron darslik mobil ilovalari “Pedagogik texnologiyalar” elektron o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohnomalari olingan;

“Reycher”, “Kreator”, “Staate”, “Ansver pillars” innovatsion ta’lim texnologiyalari “Javob estafetasi” metodi ishlab chiqilgan. Mazkur innovatsion ta’lim metod va texnologiyalariga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi mualliflik guvohnomalari berilgan;

Ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish darajalarini belgilovchi mezonlar takomillashtirilgan va tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi olingan natijalar asosida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishning natijalarining ishonchliligi hamda ona tili ta’limi sohasidagi Respublika, chet el tadqiqotchi va amaliyotchilarning ishlariga tayanilganligi; tadqiqot mohiyati, vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanganligi; tahlil va tadqiq ishi tavsifining miqdor hamda sifat jihatidan ta’minlanganligi; olingan natijalarning ishonchli metodlar yordamida tahlil qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish mexanizmi mohiyati, pedagogik imkoniyatlari, nazariy-metodik asoslari va oliy o‘quv yurtlarida talabalarni adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish metodikasini takomillashtirishning foydali imkoniyatlari, shakllari, usullarining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish mexanizmi takomillashtirilganligi, adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish mantiqiy tuzilmaviy modeli ishlab chiqilganligi, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirishga doir amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqilganligi hamda erishilgan natijalar oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ona tili o‘qitish metodikasi fanini o‘zlashtirishda samarali natijalar qo‘lga kiritilishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining ona tili ta’limida mustaqil-ijodiy fikrlash metodikasi adaptiv ko‘nikmalarining individual xatti-harakatlar, asosiy aqliy funksional, psixofiziologik sifatlar, aqliy moslashuv jarayonlari kabi komponentlarini majmuaviy tarkiblashtirish asosida takomillashtirilgan xulosalardan “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyruq Guvohnoma raqami 110-113). Natijada, pedagogika o‘qitish jarayoni metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

ona tili ta’limiga doir adaptiv ko‘nikmalarining didaktik tizimi adaptatsiya obekti, adaptiv vaziyat, adaptiv ehtiyoj, adaptatsiya dinamikasi va omillari kabi elementlarini integrativ yondashuv tamoyillari asosida aniqlashtirilgan xulosalardan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Oliy

va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyruq Guvohnoma raqami 418-131). Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni metodik ta'monoti innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishiga erishilgan;

kasbiy adaptiv ko'nikmalarni majmuaviy tarkiblashtirish asosida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodika "Staate", "Ansver pillars", "Reycher", "Kreator" metodlarini ona tilidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga tatbiq etish orqali takomillashtirilgan ma'lumotlardan "Pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyruq Guvohnoma raqami 110-114). Natijada, ona tili o'qitish metodikasi innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan respublika va xorijiy jurnallarida ilmiy maqolalar; 3 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron o'quv qo'llanma, 3 ta elektron darslik, va boshqa bir qator ilmiy-uslubiy ishlar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda talabalarda adaptiv ko'nikmalarni shakllantirish muammosi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan, ona tili o'qitishga doir adaptiv ko'nikmalarni tarkiblashtirishning nazariy asoslari o'rganilgan va didaktik shartlari bayon etilgan.

Talabalarni oliy ta'limda malakali mutaxassis sifatida samarali tayyorlashning muhim sharti ularni kasbiy faoliyatga erta moslashishi hisoblanadi. Kasbiy moslashuv har bir mutaxassisning o'z sohasi bo'yicha bajariladigan kasb vazifalarini sifatiga ta'sir etishi, faoliyatga moslasha olish iste'dodining bir-biridan farqlanishi hamda ko'p qirrali jarayon sifatida bir qator sohalarda tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan mazkur hodisaga alohida e'tibor berish zaruratini keltirib chiqardi.

Ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish muammosini ko'rib chiqish, albatta, ushbu terminning mohiyatini bilishdan

boshlanadi. “Adaptatsiya” tushunchasining turli xil talqinlarining mavjudligi bu termin mohiyatini anglashda biroz murakkablashadi. *Adaptatsiya* lotincha *adaptatio* - moslashuv degan lug‘aviy ma’noga ega. Fanda ikki ma’noda: 1) biologiya fanida organizmning har xil yashash sharoitlarga moslashish jarayoni; 2) sezgi a’zolarining o‘ziga ta’sir etadigan qo‘zg‘atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o‘zgarishi, ya’ni ko‘zning yorug‘lik yoki qorong‘ilikka moslashuvi va shu kabi ma’noda qo‘llanadi. Mazkur jarayon talabani ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy muhitda muvaffaqiyatli turli sohalarida faoliyat ko‘rsatishga tayyorlashda juda muhim.

Pedagogik tadqiqotlarda ko‘pincha quyidagi turlar ko‘rib chiqiladi, *Adaptatsiya* (lot. adaptio - moslashish) - organizmning o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashish jarayoni. “*Moslashish*” atamasi XX asrda biologik kontekstda paydo bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan u boshqa bilim sohalarida keng tarqaldi. Psixologiyada moslashish, eng avvalo, organizmning biologik funksiyasi sifatida tushuniladi, u yangilangan muhit sharoitida gomeostazni saqlash uchun tana, organlar va hujayralar funksiyalarini qayta qurishdan iborat. Umuman olganda *pedagogik moslashuv* – har bir shaxsning ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanish tizimini amalga oshiruvchi o‘qitish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonga moslashishi hisoblanib, talabaning ijtimoiy yangi sharoitlar, yangi talablar, munosabatlar, turmush tarzi va faoliyat turlarining yangi tizimiga adaptivi tushuniladi. Ona tili ta’limida ham bu jarayon talabalarni ijtimoiy muhit bilan integratsiya qilish, ularning yangi bilim va iste’dodlarini aniqlashga yo‘naltirish uchun juda muhimdir.

Ona tili ta’limiga doir moslashuvshanlikni amalga oshirish dastlab pedagogik faoliyatning to‘la huquqli subyekti sifatida o‘zini angalaydigan mas’uliyatlilikni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchilarni har birini individual xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptiv ko‘nikmalarini tarkiblashtirish qulay hisoblanadi. Ta’lim tizimi ishtirokshilarini ta’lim, kasbiy faoliyatga moslashtirishni qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish, 60110500 - Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’limning davlat ta’lim standarti va malaka talablari tahlil qilindi. Bu moslashuv subyektlari sifatida kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatish va ona tili ta’limi va kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Oliy ta’limda ona tili ta’limiga doirni kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi faktorlar sifatida: talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatining mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalariga bog‘liqligi; kasbiy faoliyatda masofadan turib raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati; o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun malakali kadrlarni jalb qilib, ta’lim tizimida o‘quv-kasbiy faoliyatni amalga osirish”; dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish zarurati, shu jumladan kasbiy xavfsizlik talablarini yangilash masalalari; kasbiy maqsadlarga erishishda talabalarning o‘zini anglashi, baholash, rivojlantirishi hamda ilmiy izlanishi; loyiha va ilmiy ishda qatnashish uchun potensial imkoniyatlar, hohish va qiziqishning bo‘lishi; pedagoglarning malakasi va dars jarayonida internet texnologiyalari dasturiy ta’minotidan foydalangan holda talabalar bilan shug‘ullanish iste’dodi belgilangan.

Oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga moslashtirish doimiy tarzda o'sib borishi, ulardagi o'zgarishlarni monitoring qilib borishda ilbiy jihatdan asoslangan qonun-qoidalarga asoslanib bajarishda tashkiliy-pedagogik shartlarni ishlab chiqish zarur. Tashkiliy-pedagogik shartning dastlabki asosi - ta'lim va kasbiy faoliyatni masofaviy raqamli texnologiyalardan asosida pedagogik, shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-kasbiy ma'lumotlar bilan boyitish pedagogik strategiyasiga asoslanadi. *Boyitish* - bu ta'limning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirish, mobil texnologiyalardan foydalangan holda malumotlarni o'zlashtirish tezligi va hajmini oshirish; bizning holatlarimizda kontent ta'lim va kasbiy faollikni oshirish vositasidir. Tashkiliy-pedagogik shartning ikkinchisi – talabalar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorlikda amaliyotga yo'naltirilgan no'ananaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol ta'lim metodlari orqali faoliyatga jalb qilishdir. Bu tashkiliy-didaktik shart inklyuzivlik pedagogik strategiyasiga asoslanadi. Moslashish deganda har qanday faoliyatni o'zlashtirish imkoniyatini berish, bu faoliyatda faoliyatni uyg'otish, uni yanada samaraliroq qilish tushuniladi. Tashkiliy-didaktik shartning uchinchisi - tadqiqot faoliyatida ishtirok etish orqali kasbning mazmuni, qadriyatlari va ustuvorliklarini anglash bilan bog'liq bo'lgan pedagogik va ijodiy salohiyatni takomillashtirish lozim.

Dissertatsiyaning **“Ona tilini o'qitishda adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarni ona tili o'qitishga tayyorlash jarayoniga doir adaptiv ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari, innovatsion texnologiyalar asosida talabalarni ona tili o'qitishga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish hamda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikalari bayon etilgan.

Talabalarining adaptiv ko'niklarini majmuaviy tarkiblashtirilishi: mustaqil va ijodiy fikrlashga doir adaptiv ko'nikmalar, nutqiy adaptiv ko'nikmalar, lingvistik adaptiv ko'nikmalar, sotsiolingvistik adaptiv ko'nikmalar, pragmatik adaptiv ko'nikmalar, kommunikativ adaptiv ko'nikmalar, axborot texnologiyalari bilan ishlashga doir adaptiv ko'nikmalar, o'z-o'zini rivojlantirishga doir adaptiv ko'nikmalar.

Mustaqil va ijodiy fikrlashga doir adaptiv ko'nikmalar - bu yangicha fikrlash, yangi yechimlarni topish va g'oyalarni yaratish ko'nikmalari bo'lib, ma'lumotni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammolarni hal qilishning yangi usullarini ko'rish imkonini beradi.

Nutqiy adaptiv ko'nikmalar - bu ongli faoliyat tizimidagi nisbatan mustaqil harakat bo'lib, nutq jarayonida diqqatni faqat nutq mazmuniga qaratishni ta'minlaydigan mahorat darajasiga keltirilishi kerak. Nutqning asosiy fazilatlarini quyidagilardir: avtomatlashtirish (harakatning ma'lum tezligini, uning yaxlitligi va silliqligini, talabaning past kuchlanish darajasini, talabaning faoliyatda ishtirok etishga tayyorligini tavsiflaydi); barqarorlik (kuch); moslashuvchanlik (talabaning yangi vaziyatlarga kiritishga tayyorligi, yangi nutq materialiga kengaytirish); ong (bayonot tuzishda yoki xato qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelganda talabaning ongli ravishda nazorat qilish qobiliyati).

Lingvistik adaptiv ko'nikmalar - bu tilni talaffuz qilish, tilni to'liq egallash, quloq orqali ma'lumotni idrok etish, so'z va iboralarni to'liq va aniq talaffuz qilish

qobiliyatini aks ettiruvchi qobiliyatdir. Lingvistik ko‘nikmalar bayonotlarni, konstruktiv nutqni to‘g‘ri shakllantirish qobiliyatini, shuningdek, til qanday tuzilganligi, qanday tarkibiy qismlardan iboratligi va uning xususiyatlari qanday ekanligini bilishni aks ettiradi.

Sotsiolingvistik adaptiv ko‘nikmalar - bu kommunikativ vaziyatga muvofiq til shakllaridan foydalanish va adekvat o‘zgartirish qobiliyati. Sotsiolingvistik adaptiv ko‘nikmalar o‘rganilayotgan til mamlakatlari ijtimoiy guruhlari, an‘analari, urf-odatlarini, asoslari, marosimlaridagi muloqot normalarini qamrab oladi. Natijada, ushbu ko‘nikmalarni egallash madaniyatlararo muloqot jarayonida muvaffaqiyatli muloqotga ta‘sir qiladi.

Pragmatik adaptiv ko‘nikmalar - bu muloqot jarayonida qo‘llaniladigan harakatlarni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Pragmatik ko‘nikmalar talabalarga turli vaziyatlar va muloqot sharoitlariga muvofiq bayonotlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini beradi. Pragmatik ko‘nikmalar kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq ko‘nikmalar to‘plami: faktik va boshqa ma‘lumotlarni qidirish, umumlashtirish va hisobot berish, o‘z fikrini ifodalash va boshqalarning fikrini aniqlash, e‘tiborni jalb qilish, maslahat berish, motivatsiya, mulohaza yuritish, tushuntirish, ko‘rsatma, ko‘rsatma, argument, ishontirish va boshqalar.

Kommunikativ adaptiv ko‘nikmalar - bu sizning qanday ishlashingiz va boshqa odamlar bilan munosabatda bo‘lishingizni tavsiflovchi shaxslararo ko‘nikmalar. Ehtimol, bunday ko‘nikmalar hatto maxsus ishlab chiqilgan deb hisoblanmaydi, chunki biz ularni ko‘pincha ishda yoki hamkasblar bilan kundalik muloqotning bir qismi sifatida olamiz. Masalan, jamoada ishlash qobiliyati yoki muloqot qobiliyatlari.


Axborot texnologiyalari bilan ishlashga doir adaptiv ko‘nikmalar - ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning potensial va real imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalari hisoblanadi. Axborot texnologiyalari o‘quv materialining o‘qitishda zamonaviy imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. O‘quv materialini taqdim etish uchun turli tuzilmalarni talab qiladigan o‘rganishga faol yondashuv bilan bog‘liq muammolarni hal qilish imkonini beradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga doir adaptiv ko‘nikmalar - bu har bir kishiga o‘z ishini yanada samarali bajarish va yanada uyg‘un hayot kechirish imkonini beradigan ko‘nikmalardir. O‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari - bu insonning jismoniy va psixologik holatini boshqarishga xizmat qiladi.

Moslashuvning o‘ziga xosligi o‘qituvchi ishining ko‘p funksiyaliligi, ko‘p strukturaliligi, ko‘p subyektivligi bilan bog‘liq va bugungi kunda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli murakkablashadi (1-rasm).

Tadqiqotni olib borish davomida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy ko‘nikmalarini majmuaviy rivojlantirishga xizmat qiluvchi mualliflik asosidagi innovatsion ta‘lim metod va texnologiyalari¹ ishlab chiqilib, ilmiy-nazariy asoslandi va o‘quv jarayoniga qo‘llanildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomalari (№ 005102, № 004596, № 004597, № 002126, № 003537) berilgan.



1-rasm. Ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarni majmuaviy tarkiblashtirish tizimli-funksional modeli

“Ansver pillarc” texnologiyasi (ing. “Answer pillars” - javob ustunlari) ta’lim jarayonida talabalarda o’rganilayotgan mavzuning mazmunini ham fikran ham yozma ifoda etish imkonini yuzaga keltirish iste’dodini shakllantirishga xizmat qiladi. “Ansver pillarc” texnologiyasidan o’quv mashg’ulotlarida foydalanish bilim o’zlashtirish sifatiga o’zining yuqori samarasini ko’rsatadi.

O’rganilayotgan mavzuning mohiyatiga ko’ra, mazmunni ochadigan savol va muammolarini aniqlash ishlarini amalga oshirish kerak bo’ladi. Buni bajarish uchun yuzaga keladigan savol va muammolarni alohida kataklarga yozib chiqiladi va har bir katakni ostki katagiga yuqoridagi savol va muammolarning javoblari qayd qilinadi. Tayyorlangan har bir ustundagi kataklarga birlashtirilgan javob kataklari tartibi bir-biriga mos kelishi kerak bo’ladi mazkur kataklarni mosligi, javob va yechimlarni to’g’riligi hamda qaysi talaba yoki kichik guruh javob ustunlarini mos va mutanosibligini talab darajasida bajarishiga qarab juftlikda ishlagan talaba yoki kichik guruh talabalari aniqlab olinadi. Shuningdek, eng ko’p javob bergan talaba yoki kichik guruhlardan g’olib tomon aniqlanib olinadi va rag’batlantiriladi.

Staate texnologiyasi. “Staate texnologiyasi (ing. “stutter” – to’xtalishlar) talabalarni o’quv materialini beixtiyor o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi va shu asnoda ta’lim jarayonida qo’llash yuqori samarali natijalar beradi. Mazkur texnologiya o’quv mashg’uloti mohiyatiga ko’ra qismlarga ajratiladi, ayirilgan har bir qismlar juftlikda ishlayotgan talabalarga yoki kichik guruhlarga taqsimlaniladi. Bo’lib berilgan qism bo’yicha har bir talaba yoki kichik guruh a’zolari izchil ravishda ishlaydilar. Ularning vazifasi mazmun elementlari hisoblangan kalit so’zlarni topish va topilgan kalit so’zlarni mos ustunlarga yozish hamda yozilgan kalit so’zlar anglatadigan mazmunni tuzish va uni ham kalit so’z yozilgan ustun ostidagi katakka yozishdan iborat bo’ladi. Mazkur vazifa bajarilgandan so’ng o’qituvchi bajarilgan ishlarni baholash uchun ustunlarni va ularda yozilgan kalit so’zlar mohiyati va ularga berilgan ta’riflar mazmunini o’zaro mutanosibligini ko’rib chiqadi. Bunda qaysi juftlik yoki qaysi kichik guruh ko’p kalit so’z va uning mazmunini tuzganligiga qarab g’olib tomon aniqlanadi. Mazkur metodni qo’llashda shu tariqa ishlar amalga oshiriladi.

“Javob estafetasi” metodi (fransuz tilidagi “estafette” so’zidan olinib, “xabarchi”, “chopar”, “aloqachi” ma’nolarini anglatadi) talabalarni beixtiyor o’tilgan mavzuning mohiyatini oanglash, belgilangan vaqtda berilgan savol yoki muammoning yechimini topish iste’dodini rivojlantirish, o’quv topshirig’ini mohiyatini tezkor anglagan holda yechimga olib chiqadigan mantiqiy fikrlay olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Metoddan foydalanishda talabalar jamoaviy yoki kichik guruhlarga bo’lingan holda o’quv topshirig’ini bajaradilar. Unga ko’ra, jamoaviy ishlashda har bir talabaga tartib raqamlaniladi. Har bir talabaga bittadan savol tuzish topshirig’i beriladi. Birinchi raqamli talaba ikkinchi raqamli talabaga estafeta shaklida qog’ozga o’zi tuzgan savolni yozib uzatadi ikkinchi raqamli talaba estafetada zilgan savolga tez javob berib, o’zi tuzgan savolni estafeta shaklida uchinchi talabaga uzatadi. Shu shaklda uchinchi talaba to’rtinchiga to’rtinchi beshinchiga va hokazo shaklida topshiriq bajariladi. Bu yerda olgan estafetasidagi savolga javob bera olmagan talaba mazkur mashqni bajarishdan chetlashtiriladi va o’zlashtirish bahosini ololmaydi. Talabalarning mustaqil ta’limining rolini

oshirmasdan turib zamonaviy oliy ta'lim muammolarini hal etib bo'lmaydi. Bunda zamonaviy o'qituvchi o'zida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini doimiy takomillashtirib borishi lozimdir. Mutaxassisning o'z ehtiyojlariga mos keladigan ma'lum bir malaka darajasiga erishish iste'dodi individual tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirish, kompetensiyalarni shakllantirish tushuniladi. Talabalarning mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirishning bosh maqsadi - bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati bo'yicha amaliy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishga yordam beradigan madaniy, kasbiy va umumiy kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan yuqori malakali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini mukammallashtirishdir.

“Reycher” texnologiyasi – “Fransuzcha *recherche* so'zi - *tadqiqot, izlanish* ma'nosini bildiradi. ta'lim jarayonining barcha shakllarida qo'llash va samarali natijalarga erishish mumkin bo'lgan texnologiya sifatida e'tirof etish mumkin”. Reycher texnologiyasi o'quv mashg'ulotlarida ham mustaqil ta'limda ham qo'llash mumkin bo'lgan samarali natijalar beruvchi texnologiya bo'lib, mazkur tadqiqot ishida biz mazkur texnologiyani mustaqil ta'limni ijodiy faollashtirish maqsadida qo'llash asosidagi tajribalar olib bordik. Mazkur texnologiyani mustaqil ta'limning auditoriya sharoitida qo'llashda talabalar juftlikda ishlash yoki kichik guruhlarda yoki jamoaviy ishlash tartibida amalga oshirish mumkin. Auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatda ham o'ziga xos samarali natijalar beradi.

Kreator texnologiyasi – (inglizcha “creator” – “yaratuvchi”, “ijodkor” ma'nolarida) ta'limning turli shakllarida qo'llash mumkin bo'lgan, xususan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda ahamiyati yuqori hisoblanadigan texnologiyadir. “Mazkur texnologiya ta'lim jarayonida talabalarning yaratuvchanlik, mustaqil fikrlash, loyihalash va ijodkorlik moyilliklarini shakllanishida muhim rol o'ynaydi”. Mazkur innovatsion texnologiya talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun mustaqil ta'limning auditoriya sharoitida ham auditoriyadan tashqari sharoitda ham qo'llash zerikish va toliqishini oldini olish, motivatsiyasini oshishi hamda aniq natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'limni amalga oshirishda o'rganilayotgan mavzuning mazmuni yoritilgan matn, tegishli adabiyotlar, internet materiallari to'planadi; to'plangan manbalar mazmunini aks ettiruvchi etalon so'zlar ajratib chiqilishi kerak. Ajratilgan har bir etalon so'z o'rganilayotgan mavzuning mazmun elementlari sifatida o'z mohiyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu topshiriqni auditoriya mashg'ulotlarida mustaqil ishlashda talabalar orasida o'zaro intellektual bellashuv muhitini yaratish orqali ularning motivatsiyasini oshirish uchun juftlikda ishlash, kichik guruhlarda ishlash va jamoaviy ishlash shaklida topshiriq berish mumkin. Talabalarining mustaqil ta'limini ijodiy faollashtirish funksionalligini innovatsion ta'lim texnologiyalari tashkil qiladi. Bu jarayon: sohaga tegishli ma'lumotlarini o'zlashtirish, intellektual, ijodkorlik faoliyati madaniyatini shakllantirish; rag'batlantirish (o'z-o'zini tarbiyalash uchun motivatsiya); tarbiyalash (malakali mutaxassisning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish).

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy vazifalarini tahlil qilganda mustaqil ta'limning belgilarini aytib o'tish hamda ularni tavsiflash shart: muammoli masala, kognitiv yoki amaliy vazifa, ularni amalga oshirishda maxsus ajratilgan vaqtning mavjudligi; harakatni yaxshi, berilgan vazifalarni bajarishda to'g'ri yondashish;

talabalar individual, faol va ongli ravishda berilgan vazifalarni bajarishi; talabaning o'zini boshqarish, mustaqil amaliy va kognitiv faoliyat yuritishi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi”** deb nomlanib, tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari, tajriba-sinov ishining maqsadi, vazifalari, bosqichlari aniqlangan, tajriba-sinov ishlari natijalari miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan.

Talabalarning ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish jarayonida nafaqat shaxsiyat, balki atrof-muhit ham o'zgaradi, buning natijasida ular o'rtasida moslashish munosabatlari o'rnatiladi. Ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarini majmuaviy tarkiblashtirish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yosh o'qituvchining pedagogik kasbiga kirishi, mutaxassis bo'lib yetishishi, uni shaxs sifatida shakllantirish jarayonida muhimdir.

